

2. Володина М. Н. Язык СМИ – особый язык социального взаимодействия. Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. Ч.2. – М.: МГУ, 2004. – 338 с.

3. Кубрякова Е. С., Цурикова Л. В. Вербальная деятельность СМИ как особый вид дискурсивной деятельности. Язык средств массовой информации: учебн. пособие для вузов. – М., 2008. – 298 с.

4. Тешабаева Д. М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол.ф. д-ри... дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 62.

5. Усмонова Ш. А. Медиадискурсда газета тили тенденциялари (ўзбек ва инглиз тиллари мисолида). Филол. фан... фалсафа доктори (PhD) дис. – Тошкент, 2021. – Б. 39.

6. Дадабаева Х., Тешабаева, Д. (2024). Роль акта в формировании коммуникативной компетентности при обучении иностранным языкам курсантов военного образования. in Library, 3(3), 235–242. // <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/28409>

INTENSIFIKATSIYA / DEINTENSIFIKATSIYA SEMANTIKASINING SO’Z BIRIKMALARI PARADIGMALARINI SHAKLLANTIRISHI

Avaz ZIYAEV

*Qo’qon davlat pedagogika instituti,
ingliz tili va adabiyoti kafedrasi
professori, filologiya fanlari doktori*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sintaktik sathning asosiy birligi bo’lgan so’z birikmasi so’z shakllar bilan, intensifikatsiya/deintensifikatsiya ana shu shakllar bilan bog’liqligi, so’z birikmasi sintaktik birlik hisoblansa ham, u, aslida, sodda gapning qurilish materiali ekanligi, boshqacha aytganda, so’z birikmasi va gap orasida butun-qism munosabati mavjudligi intensifikatsiya/deintensifikatsiya hodisasi qismga, ya’ni so’z birikmasiga emas, balki ulardan tashkil topgan gapga xos ekanligi xususida fikr yuritadi.

Kalit so’zlar: sath, sintaktik sath, so’z birikmasi, gap, matn, so’z shakl, affiks, xokim-tobe munosabati.

Ma’lumki, sintaktik sath birliklarini so’z birikmasi, gap va matn tashkil etadi. Ushbu birliklar orasida o’zaro ierarx tashkil etuvchilik xususiyati bor, ya’ni so’z birikmalaridan gap, gaplardan matn hosil bo’ladi. Sintaksisning morfologiya bilan

aloqasi so'z birikmasi orqali amalga oshadi. Aniqrog'i, morfologik vositalar bilan hosil qilingan so'z shaklidan so'z birikmasi vujudga keladi. Morfologik sath so'z shakllari va bular bilan bog'liq so'z turkumlari tizimidan iborat. Sintaktik sathning asosiy birligi bo'lgan so'z birikmasi so'z shakllar bilan, intensifikatsiya/deintensifikasi-tsiya ana shu shakllar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ularning turlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

An'anaviy lingvistik qarashlarga ko'ra so'z shakl so'zga qo'shimcha ma'no beruvchi affikslar qo'shilishidan hosil bo'ladi. So'z shakllarini hosil qiluvchi affikslar o'z semantik funktsiyalariga ko'ra ikki turlidir. Birinchi turi so'zga qo'shib, unga qo'shimcha grammatik ma'no berish bilan chegaralanadi, o'zi qo'shilayotgan so'zni boshqa so'z bilan bog'lamaydi. Bularga ot turkumidagi ko'plik, kichraytirish, hurmat-erkalash, sifatlardagi daraja, fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik affikslari kabilar kiradi. Shakl yasovchi affikslarning ikkinchi turi borki, ular so'zga qo'shimcha ma'no beradi va ayni paytda shu so'zni boshqa so'z bilan bog'laydi. Bularni kelishik, egalik, shaxs-son affikslari tashkil etadi. Bu shakl yasovchilar so'z birikmasi va gapni shakllantirishga xizmat qiladi.

So'z shakllarining ikki turi qayd etiladi: analitik va sintetik shakl yasovchilar. Sintetik shakl so'zga affiks qo'shish yo'li bilan hosil bo'ladi. Analitik shakl esa so'zga yordamchi so'zlar, ya'ni ko'makchi, to'liqsiz fe'l, ko'makchi fe'l, bog'lama-so'zlarni qo'shish orqali hosil qilinadi. Shakl yasovchilar sintaktik sathda ikki xil vazifa bajaradi. So'zga faqat qo'shimcha ma'no berib, so'zlarni bog'lashga xizmat qilmaydi. Ikkinchi turdag'i shakl yasovchilar (kelishik, ko'makchi, predlog, shaxs-son) so'z birikmasi, gap kabi sintaktik hodisalarni hosil qilishda ishtirok etadi [1; 54].

Ma'lumki, fonologik-fonetik sath birliklaridan boshqa sathlar-ning birliklari ikki tomonlama, ya'ni ifodalovchi va ifodalanmish jihatlarga ega bo'lgan birliklardir. Ifoda tomon deyilganda til birligi, xususan sintaktik birlikning tovush tomoni, nomemalari talaffuzi, bo'g'in, urg'u jihatlari tushuniladi. Ifodalanmish deyilganda ob'ektiv yoki sub'ektiv borliq bilan bog'liq ma'no, mazmun jihatlar anglashiladi [6; 56-57]. Sintaktik sathdag'i intensifikatsiya/deintensifikatsiya hodisasi sintaktik birliklar yoki so'z birikmasi, gap, matnning ham ichki (mazmun), ham tashqi (ifodalovchi) tomonlariga aloqadordir.

Quyida sintaktik birliklardan biri bo’lgan so’z birikmasining intensifikatsiya/deintensifikatsiya xususiya-tiga to’xtalamiz.

So’z birikmalari ikki va undan ortiq tushunchalarning xokim-tobe munosabatdagi moslashuvli, boshqaruvli, bitishuvli so’z qo’shilmalaridir. Demak, ushbu so’z birikmalarining har bir turida intensifikatsiya/dein-tensifikatsiya hodisasi mavjud yoki mavjud emasligi, mavjud bo’lsa, uning o’ziga xos jihatlari haqida gapirishga to’g’ri keladi.

Qaratqich kelishigi bilan bog’lanishga ega bo’lgan so’z birikmasida intensifikatsiya/deintensifikatsiya hodisasi mavjud. So’z birikmasi gapning qurilish materialidir. U nisbiy mustaqillikka ega bo’lib, so’zlarning xokim-tobe munosabati asosida shakllanadi. Ikki va undan ortiq so’zning semantik-grammatik jihatdan bog’lanib, murakkab tushuncha hosil qilishi so’z birikmasi mazmunini tashkil etadi. So’zlar valentliklari ularning so’z birikmalari hosil qilish imkoniyatlarini belgilab beradi. Biz ushbu o’rinda so’z birikmasiga nisbiy mustaqil sintaktik hodisa sifatida qarab, unda intensifikatsiya/deintensifikatsiya hodisasining yuz berishiga o’z diqqatimizni qaratamiz. Yuqorida eslatilganidek, bunda intensifika-tsiya/deintensifikatsiya so’z birikmasining ifoda yoki ifodalanmish qismiga aloqadorligiga e’tibor beriladi.

O’zbek tilida kishilik olmoshlarining o’zlik olmoshlari bilan birikishi natijasida ifoda tomonning kuchaytirilishi (ta’kidlanishi, aktsantuatsiyasi) vujudga keladi. Bu o’rinda shunga e’tibor berish kerakki, o’zbek tilida o’z so’zi o’zak holatda o’zlik olmoshi hisoblanmaydi [2; 46]. Bu so’z o’zak holatda sifat maqomida keladi: o’z (qanday?) bola. Qiyoslang: Karim unga o’z bolami yo o’gay bolami? – Karim yey rodnay malchik ili nerodnoy?. O’zlik olmoshi o’z so’ziga egalik olmoshi qo’shish bilan hosil qilinadi. Ushbu o’zlik olmoshlari kishilik olmoshlariga sinonim bo’ladi: o’zim = men; o’zing =sen; o’zi = u; o’zimiz = biz; o’zingiz =siz (lar); o’zлari =ular; O’z-o’zidan tushuniladiki, bir so’zdan keyin u so’z sinonimining keltirilishi oldingi so’z ma’nosining ta’kidlanishiga (ekspressivligiga) olib keladi. Bunda ikkinchi gap ifoda intensifikatsiyasiga ega. Zero, men o’zim ifodasida o’zim olmoshi o’zida men ma’nosiga ega bo’lganligi uchun “men“ ning ma’nosini ta’kidlayapti, uning mantiqiy, gapning

aktual bo'linishidagi ahamiyatini oshirmoqda. Shunday qilib o'zbek nutqida mening o'zim, sening o'zing, uning o'zi, bizning o'zimiz, sizning o'zingiz, ularning o'zlari so'z birikmalarida shu birikmalarning ifoda jihatiga aloqador intensifikatsiya hodisasi bor. Ko'p hollarda mening o'zim, sening o'zing, kabi birikmalarning hokim qismi bo'lgan o'zim, o'zing alohida qo'llanishi mumkin. Bunday holatlarda ham o'zim, o'zing so'zlariga asosiy diqqat qaratilgan va shu bois ular mantiqiy urg'uga, ekspressivlikka ega bo'ladi: O'zim keldim (Boshqalar yo'q); O'zing keldingmi? (Boshqalar kelmadimi?) kabi. Ushbu o'rinda shunga ham e'tibor berish lozimki, o'zlik olmoshidan butun gapni ta'kidlovchi yuklama vujudga kelgan. Ushbu yuklama gap boshida, o'rtasida, oxirida kelib, uning mazmunini ta'kidlay oladi: a) ega ma'nosini ta'kidlash uchun: Karim o'zi keldimi? b) kesim ma'nosini ta'kidlash uchun: Karim keldimi o'zi?

O'zbek tilida takrorning shunday turlari borki, ular ifodalanmish yoki so'z ma'nosini ifodalagan belgining kuchaytirilishi uchun xizmat qiladi. Bular sifat va ravishlar asosida vujudga kelgan takrorlardir [4; 32]. Ulardan biri chiqish kelishigi asosida shakllangan takrordir: donolarning donosi (mudrъiy iz mudryix), yomonlarning yomoni (xudshiy iz xudshix), yaxshilarning yaxshisi (luchshiy iz luchshix) kabi. Ingliz tilida horror of horrors, wonder of wonders: One day it was discovered, horror of horrors, that a gang of gypsies had been living there. Bunda butundan qism (yakka) boshqalarga qaraganda o'z xususiyati, belgisining ortiqligi asosida ajratiladi.

Shuningdek, o'zbek tilida so'roq-javob konstruktsiyalarining leksikalizatsiyasidan vujudga kelgan takrorlar ham uchraydi: shaharmisan shahar, odammisan odam, qizmisan qiz. Bu kabi takrorlarda qism yoki yakkalikning qiyossiz, ta'kid yo'li bilan muayyan belgining kuchli darajasiga egaligi ifodalananadi.

Bundan tashqari ingliz tilida quyidagi so'z birikmalari ham so'z ma'nosini ma'lum darajada me'yordan ortiqligini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: a) for ever, for good, for centuries/for year, on /the/ earth /not on earth/, in the world /not in the world/, for the world /not for the world/, thousands of pardons, to say a hundred times va h.k [5; 65-66]. : Where on earth have you been walking? (Gde, chert poberi, ты xodishъ – Qaerlarda yuribsan?, jin ursin); He is the happiest man on the planet (On samiy schastlivyyu

chelovek na planete – U yer yuzidagi eng baxtli kishi); He is one of the most prominent literary figures in the world. U jahondagi eng taniqli adabiy shaxslardan biri - On odin iz naiizvestneyshix literaturnyix figur v mire; I wouldn't go to him for the world (Men unikiga ikki dunyoda ham bormayman – Ya ni za chto ne poydu k nemu); o'zbek tilida: bir umr, umr buyi, umri davomida, ep yuzida, dunyo ichra, jahon ichra, dunyo/jahon bo'yicha: U bir umr qo'liga gazeta olmagan edi (M.Ismoilii, Farg'ona tong otguncha, 235 –bet); On v jizni ne bral gazetu v ruki – He has never taken a newspaper into his hands.

Endi so'z birikmalari yordamida me'yordan past holatni ifodalanishi xususida fikr yuritamiz. Ingliz tilida a bit of (ozgina), a small way more or less, very little, bit by bit, day by day, quite a little path quite a tiny way, the tiniest issue va h.k.; o'zbek tilida: bir qultum suv, bir qoshiq qon(imdan keching), bir xo'plam suv, bir tomchi suvga zor bo'lmoq, bir og'iz gap, bir tomchi qoni qolguncha, bir hovuch odamlar, qil ko'prik, bir tiyinsiz, hemiri yo'q, arzigulik bo'lмаган, qildek ingichka, cho'pdek ozg'in, qoq suyak, zarradek mayda, zig'irdek kichkina, uncha-muncha, yop-yolg'iz, yolg'iz o'zi, qilday joni, jindek beda, ozmi-ko'pmi va h.k.: Buni qarang, qilday joni qolibdi-yu bu bechoraning.

So'z birikmasi sintaktik birlik hisoblansa ham, u, aslida, sodda gapning qurilish materialidir. Boshqacha aytganda, so'z birikmasi va gap orasida butun-qism munosabati mavjud [3; 38]. Intensifikatsiya/deinten-sifikatsiya hodisasi qismga, ya'ni so'z birikmasiga emas, balki ulardan tashkil topgan gapga xosdir. Gap modeli kommunikativ funktsiya bajarayotganda yoki nutqiy maqomga ega bo'lgach, intensifikatsiya/deintensifikatsiya hodisasini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois belgining kuchaytirilishi yoki kuchsizlantirilishi hodisasini o'z ichiga olgan intensifikatsiya/deintensifikatsiya hodisasini gap, aniqrog'i, nutqiy jumla tarkibida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, intensifikatsiya/deintensifikatsiya sintaktik birliklarning ham ifoda, ham ifodalanmish jabhalariga xosdir. Belgini kuchaytirish va kuchsizlantirish sintaktik birlikning ifoda tomoniga xos bo'lganda ob'ektiv borliqqa xos bo'lgan belgi xususiyatning miqdori ozaytirilmaydi/ko'paytirilmaydi, balki ifoda

(so'zning ohang, so'zning ifodalovchi yoki nomemalari) kuchi oshiriladi yoki kamaytiriladi. Ifodalanmishning intensifikatsiya/deintensifikatsiyasi deyilganda unda ifodalangan belgi xususiyatning miqdoran oshishi yoki kamaytirilishi nazarda tutiladi. Ifoda tomon ta'sirchanligining oshirilishi gapdag'i (jumladagi) ta'kidlanish, aktsentuatsiya hodisasi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov G'.A., Shoabdurahmonov Sh.Sh., Hojiev A.P. O'zbek tili grammatikasi II- qism. – Toshkent: Fan, 1976. – 596 b.
2. Kononov A.N. Grammatika sovremennoogo uzbekskogo literaturnogo языка. – M-L.: Izd.akad nauk, 1960. – 446 b.
3. Mengliev B.R. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur Bostoni, 2018. – 200 b.
4. Rahmatullaev Sh.U. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Mumtoz soz. 2010. – 208 b.
5. Sidorova T.N. K voprosu opredeleniya kategorii intensivnosti // Materialы международной заочной научно-практической конференции. – M., 2011. – S. 45-51.
6. Tursunov U.T., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. U. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1965. – B. 21-34.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Севара ЗИЯЕВА

*Доктор педагогических наук, доцент,
Узбекский государственный университет мировых языков*

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования и совершенствования социолингвистической компетенции, которая является важным аспектом коммуникативной компетенции. Автор предлагает комплексную модель социолингвистической компетенции, состоящую из трех уровней: микро-, мезо- и макроуровня, которые включают в себя знание и умение использовать различные языковые ресурсы и учитывать факторы, влияющие на выбор языка. В статье делаются выводы о том, что социолингвистическая компетенция является важным компонентом коммуникативной компетенции, который позволяет успешно взаимодействовать с носителями иностранного языка в различных социальных и культурных контекстах.